


## 2022- yilning yanvar-iyunida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 692,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissi 2,0 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>6 532,5</b>	<b>7 692,4</b>	<b>105,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 293,7	7 407,1	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	238,8	285,3	109,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 293,7</b>	<b>7 407,1</b>	<b>105,5</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 056,3</b>	<b>2 409,0</b>	<b>103,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 251,3</b>	<b>2 594,6</b>	<b>108,3</b>
sanoat	1 750,6	2 015,4	110,4
qurilish	500,7	579,2	100,9
<b>xizmatlar</b>	<b>1 986,1</b>	<b>2 403,5</b>	<b>104,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	314,5	366,5	103,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	233,2	270,6	111,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 438,4	1 766,4	104,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 713,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,5 % ni, sanoat tarmog'i 27,2 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 32,5 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	96,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	3,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>32,7</b>	<b>32,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>35,8</b>	<b>35,0</b>
sanoat	27,8	27,2
qurilish	8,0	7,8
<b>xizmatlar</b>	<b>31,5</b>	<b>32,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,0	4,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,7
boshqa xizmat tarmoqlari	22,8	23,9

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida –103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 110,4 % (27,2 %), qurilishda – 100,9 % (7,8 %), xizmatlar sohasida –104,7 % ni (32,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,6 % (4,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,0 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida salbiy 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,8 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 4,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,07 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida salbiy 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.

## 2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,5 % va qurilishda – 114,6 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 62,9 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 67,2%).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

67,2 %

2022- yil

62,9 %